

XXI-ASR SHAROITIDA KASBIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH-INDIVIDUAL VA HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14909816>

Bakirov Otabek Bo'ranovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotation: In this article, the methodology of professional development today includes not only an individual approach, but also effective methods of organizing collaborative activities. Individual activity is the process of self-management and continuous learning of a specialist in the implementation of their goals, while collaborative activity together with the team means achieving a goal, sharing experiences and making common decisions. These two types of activities, when carried out together, not only accelerate professional growth, but also create new opportunities.

Key Words: 21st century, professional development, collaborative activities, individual, reflection.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология повышения квалификации, которая сегодня включает в себя не только индивидуальный подход, но и эффективные методы организации совместной деятельности. Индивидуальная деятельность - это процесс самоуправления и непрерывного обучения специалиста в реализации своих целей, в то время как совместная деятельность вместе с командой означает достижение цели, обмен опытом и принятие общих решений. Эти два вида деятельности, когда они проводятся вместе, не только ускоряют профессиональный рост, но и создают новые возможности.

Ключевые слова: 21 век, профессиональное развитие, совместная деятельность, индивидуальность, рефлексия.

Kasbiy faoliyatni rivojlantirish – bu har bir professionalning o'z malakasini oshirish, tajriba orttirish va yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaviy ish sharoitlarida nafaqat individual, balki jamoaviy hamkorlikda ham amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyatning samarali rivojlanishi uchun har bir mutaxassisning o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, jamoaviy ish va hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyati zarur.

Bugungi kunda kasbiy rivojlanish metodikasi nafaqat individual yondashuvni, balki hamkorlik faoliyatini tashkil etishning samarali usullarini ham o'z ichiga oladi. Individual faoliyat – bu o'z maqsadlarini amalga oshirishda mutaxassisning o'zini o'zi boshqarish va doimiy o'rganish jarayoni bo'lsa, hamkorlik faoliyati esa jamoa bilan birgalikda maqsadga erishish, tajriba almashish va umumiy qarorlar qabul qilishni anglatadi. Bu ikkala faoliyat turi, birgalikda amalga oshirilganida, nafaqat kasbiy o'sishni tezlashtiradi, balki yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan prezident hamda ijod maktablari o'z faoliyatini boshladi.

Prezident maktablari – bu nafaqat yuqori malakali o'qituvchilarni, balki zamonaviy pedagogik metodlar va ilg'or ta'lim tizimlarini o'z ichiga olgan muassasalar bo'lib, ular yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu maktablar o'quvchilarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni kasb-hunarga yo'naltirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish. Prezident maktablarida o'quvchilarga kasb-hunarga yo'naltirish masalasi, ularni kelajakda muvaffaqiyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, nafaqat ular uchun kelajakda aniq va barqaror ish o'rinlarini yaratish, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ham zarurdir. Buning uchun o'qituvchilar turli kasblar haqida ma'lumotlar berib, o'quvchilarga o'z qiziqishlarini va kuchli tomonlarini aniqlashda yordam berishlari kerak. Tanqidiy fikrlash va axborotni izlash. Prezident maktablarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Tanqidiy fikrlash – bu faqat o'rganilgan ma'lumotni yodlash emas, balki ularni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan qarab, muammolarni hal qilishni o'rganishdir. O'qituvchilar o'quvchilarga axborotni izlash, saralash va tahlil qilishni o'rgatish orqali ularning ilmiy-tadqiqot ishlari va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Ilg'or tajribalarni tatbiq etish. Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalar, nafaqat o'quvchilarning bilimlarini kengaytirishga, balki o'qituvchilarning pedagogik metodlarini takomillashtirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, yangi o'qitish metodikalarini qo'llash, o'quvchilarga amaliy topshiriqlar berish kabi usullar umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etilishi zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid bilimlarni yangilab borish muhimdir.

Amaliyotda qo'llash. O'quvchilarning olingan bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rgatish, ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy ishlar orqali o'quvchilar o'rganilgan nazariy bilimlarni haqiqiy hayot sharoitlarida qo'llashni o'rganadilar. Shunday qilib, o'qituvchilar o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlar asosida topshiriqlar berishlari va ularni echish usullarini ko'rsatishlari lozim.

Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalar, o'quvchilarda kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda samarali natijalar beradi. Ushbu tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish orqali, nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiramiz, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun mustahkam poydevor yaratamiz. O'qituvchilar esa, o'z kasbiy faoliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish, yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirish orqali nafaqat o'quvchilarga, balki jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladilar.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish, ularning o'z ustida ishlashga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va o'zgaruvchan talablar va sharoitlarga moslashishga yordam berish juda muhimdir. Shu sababli, refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish, o'qituvchilarning professional o'sishida muhim o'rin tutadi.

Refleksiya – o'z-o'zini anglash va takomillashtirish. Refleksiya o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayonidir. Bu jarayon o'qituvchilarga o'z ishlari va qarorlarini tanqidiy ko'z bilan ko'rib chiqish, xatolarni tushunish va ularni tuzatish imkoniyatini yaratadi. Refleksiya o'qituvchining o'z malakalarini oshirish va pedagogik uslublarini takomillashtirish uchun zarur vositadir. O'qituvchi o'zining o'quvchilari bilan aloqasini, darsni qanday o'tkazishini, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilib, keyingi darslarda yaxshilanishlar kiritishi mumkin.

Refleksiya jarayoni o'qituvchi uchun nafaqat o'z faoliyatini baholash, balki o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va o'qitish metodlarini moslashtirish uchun muhimdir.

Bu jarayon o'qituvchining o'zgarishga tayyorligini, yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqini va o'quvchilarga samarali ta'lim berish uchun zarur bo'lgan tashabbuslarni shakllantiradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish. Uzluksiz kasbiy rivojlanish – bu o'qituvchining malakasini doimiy ravishda oshirish va yangi bilimlar bilan boyitish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini yangilab borishiga, balki pedagogik uslublarini zamonaviy talablarga moslashtirishga ham yordam beradi. Ta'limning zamonaviy sharoitlari va talablarining o'zgarishi, o'qituvchidan doimiy ravishda o'zini rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababli, o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, metodikalar va o'qitishning innovatsion usullarini o'zlashtirishi zarur.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan sadoqatini, ijodkorligini va professionalizm darajasini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy rivojlanish jarayoniga qatnashishi, uning o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berish imkoniyatlarini yaratadi. O'qituvchi o'z malakasini oshirish uchun seminarlar, treninglar, konferensiyalar, onlayn kurslar va boshqa ta'lim faoliyatlarida ishtirok etishi lozim.

Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanishning o'zaro aloqasi. Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Refleksiya orqali o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilgandan so'ng, qaysi sohalarda rivojlanishga ehtiyoj borligini aniqlaydi. Bu aniqlash, o'z navbatida, o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar qidirishga undaydi. Refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi va unga yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishga turtki beradi.

O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilib, xatolarni va kamchiliklarni aniqlagandan so'ng, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoniga yanada jiddiy kirishadi. Shu bilan birga, yangi bilimlar olish, o'z ustida ishlash va malakani oshirish jarayonlari o'qituvchining pedagogik yondashuvlarini yaxshilashda yordam beradi. Bu jarayon o'qituvchilarga o'zlarining kasbiy o'sishlarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish ta'lim jarayonining ajralmas qismlaridir. Refleksiya o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy baholash va o'zgarishlarga tayyor bo'lishini ta'minlaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish esa, o'qituvchining yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, pedagogik uslublarini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi. Bu jarayonlarning birlashishi o'qituvchilarning professional o'sishini tezlashtiradi, ularni ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga moslashtiradi va o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga imkon yaratadi. Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy rivojlanishiga jiddiy yondashishi

kerak, chunki bu nafaqat uning o'zining, balki butun jamiyatning ta'lim darajasining oshishiga hissa qo'shadi.

Kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish sikllari

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) deganda o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyati va karerasi davomida o'z bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarini saqlashi, takomillashtirishi va kengaytirishi tushuniladi. Mazkur kurs singari UKR kurslarida ishtirok etish orqali, ta'lim beruvchilar eng so'nggi ta'lim amaliyotlari, texnologiyalari va nazariyalari haqida xabardor bo'lib turishadi va bu orqali yuqori sifatli ta'lim berishga hamda o'quvchilarning doimiy rivojlanishda bo'lgan ta'limiy ehtiyojlarini qondirishga qodir mutaxassis bo'lib boradilar.

Refleksiya samarali uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslarining eng muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi. Mazkur kursda o'qituvchilar strukturalashgan faoliyat turlari davomida barcha mavzular bo'yicha refleksiv mushohoda yuritdilar. Endi bo'lsa o'qituvchilar o'zlarining dars faoliyati davomidagi tajribalaridan saboq olish hamda o'zlarining kuchli va zaif tomonlari haqida refleksiv mushohoda yordamida yaxshiroq tushunchaga ega bo'lishni o'rganadilar.

A) "Nima? Nima qilibdi? Endi nima?"

Bu refleksiv amaliyotning eng oddiy va hamma foydalanishi mumkin bo'lgan modeli hisoblanadi. Ushbu model orqali refleksiv amaliyotdan o'qitish amaliyotlarini tahlil qilish, shaxsning o'z kuchli va zaif tomonlarini, qiyinchiliklarini hamda kelgusida rivojlantirishga muhtoj bo'lgan jabhalarini aniqlashtirishda foydalanish mumkin.

Ushbu mashqni bajarish quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. O'qituvchilardan o'z faoliyatlarida darsda yaqinda sodir bo'lgan murakkab vaziyatni eslashni va u haqida o'ylashni so'rang.

2. O'qituvchilardan ushbu tajriba haqida quyidagi savollarga o'z refleksiv jurnallarida javob yozishlarini so'rang:

Nima? Ushbu yaqinda o'tgan darsingizda nima sodir bo'ldi?

Nima qilibdi?: Nima uchun ushbu voqea Siz uchun muhim ahamiyatga ega? Unda nimani payqadingiz va nimani o'rgandingiz?

Endi nima?: Keyingi safar huddi shu singari vaziyatda nimani boshqacha qilgan bo'lar edingiz?

1. O'qituvchilardan o'z refleksiv qaydlari bilan juftlikda yoki kichik guruhda o'rtoqlashishni so'rang.

2. O'qituvchilardan o'z tushunchalarini taqqoslashni va yaxshilanish yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan strategiyalar haqida aqliy hujum yo'li bilan o'ylab ko'rishga undang.

3. Bir nechta o'qituvchilardan o'z refleksiv qaydlari bilan o'rtoqlashishni

so‘rang.

4. Bu trenerlar uchun o‘qituvchilarning refleksiv qaydlari (hikoya)larida takrorlanuvchi, tez-tez uchrovchi mavzular, masala yoki muammolarni ko‘rsatib o‘tish uchun yaxshi imkoniyat.

5. Ushbu modeldan doimiy ravishda foydalanish o‘qitish amaliyotlariga baho berish va kasbiy o‘rishni rag‘batlantirishda qanchalik foydali ekanligini ta’kidlang.

6. Yakuniy bosqich sifatida o‘qituvchilar ushbu oddi modeldan foydalanish o‘z kasbiy rivojlanishlarida qanchalik foydali bo‘lishi mumkinligi haqida qisqacha qayd qilib qo‘yishlari mumkin.

Navbatdagi faoliyat turida o‘qituvchilar refleksiya modellarining boshqa turlari va ularni o‘z kasbiy faoliyati kontekstiga moslashtirish va qo‘llash haqida o‘rganishadi.

Gibbs refleksiya sikli, Brukfeldning to‘rt linzasi, Refleksiyaning Ritxart sikli.

O‘qituvchilar o‘z refleksiv jarayonlarida foydalanishi mumkin bo‘lgan juda ko‘plab tuzilma va modellar mavjud. Ushbu mashqda o‘qituvchilar refleksiyaning uchta modeli: Gibbs refleksiv sikli, Brukfeldning to‘rt linzasi, Refleksiyaning Ritxart sikli bilan tanishishadi.

O‘qituvchilarga refleksiya modellari berilgan 2.6B tarqatma material beriladi. Ushbu tarqatma materialda o‘qituvchilarga har bir berilgan model va ularni amaliyotga tatbiq etishning bosqichlari umumlashtirilgan jadval taqdim etiladi.

O‘qituvchilarni juft bo‘lib ishlagan holda tarqatma materialda berilgan uchta modelni tahlil qilishni so‘ranladi. Shuningdek, o‘qituvchilardan juft bo‘lib ishlagan holda har bir modelni muhokama qilishni va berilgan modellarda ularga nima manzur bo‘lgani va bo‘lmaganligini bir-birlariga izohlab berishlarini so‘raladi.

So‘ng o‘qituvchilar berilgan modellardan bittasini o‘z hayotlarida sodir bo‘lgan muhim voqea hodisa xususida refleksiya qilib ko‘rishda foydalanishi hamda bu orqali ushbu refleksiya modelining o‘qitishdan boshqa kontekstlarda qanday ish berishini sinab ko‘rishlari mumkin. Hayotdagi voqea hodisaga misol sifatida uyda yoki ishda bo‘lgan, o‘zlari rejalashtirgandek chiqmagan yoki kutilmagan salbiy natijaga olib kelgan voqea-hodisa bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilardan qaysi modeldan foydalanganliklarini butun guruhga yoki Padlet orqali aytib berishni hamda ular refleksiya qilgan voqea-hodisaning qisqacha mazmunini aytib berishni so‘raladi.

So‘ng o‘qituvchilardan o‘z refleksiv jurnallariga mazkur mashg‘ulotda foydalangan hamda eng yaxshi deb topgan refleksiya modellari xususida qisqacha qayd kiritib qo‘yishlarini so‘raladi. O‘z qaydlarida nima uchun aynan shu modelni ma’qul ko‘rganliklarini va undan o‘z faoliyatlarida hamda turli kontekstlarda foydalanishga nima uchun eng mosi deb topishlarini izohlashni so‘raladi.

B) O'z kasbiy amaliyotimizda refleksiyaning rag'batlantirishda ahamiyatli voqea-hodisalar (critical incidents)dan foydalanish

Ahamiyatli voqea-hodisalar (critical incidents) bizning kasbiy faoliyatimizda sodir bo'ladigan kutilmagan, muhim ahamiyatga ega voqealar sanaladi. Bular ichiga biz va o'quvchilarimiz o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab vaziyatlar, sinfni boshqarishdagi ikkilanishlar yoki o'rganishdagi muvaffaqiyatni, imkoniyatlarni ajratib ko'rsatuvchi voqealarni kiritish mumkin.

Ahamiyatli voqea-hodisalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Misol uchun:

- Batafsil rejalashtirilganligiga qaramay o'quvchilarni faol jalb qila olmagan, muvaffaqiyatsiz o'tgan dars.

- Darsga putur yetkazgan o'quvchilar o'rtasidagi kelishmovchilik.

- Ma'lum bir o'qitish strategiyasining kutilmagan darajada muvaffaqiyatli bo'lgan va o'quvchilarning mukammal darajada tushunishiga yetaklagan vaziyat.

Ahamiyatli voqea-hodisalar refleksiv amaliyotni rag'batlantirish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilinishi mumkin.

Ahamiyatli voqea-hodisalar qay tarzda kasbiy o'sishga yetaklashi mumkinligini namoyish qilish uchun o'qituvchilarni quyidagi jarayondan o'tishga taklif qiling:

1. Quyidagi ahamiyatli voqeani o'qituvchilarga taqdim eting.

O'qituvchi interaktiv darsni yaratish ustida ancha vaqt sarflaydi. Sa'y-harakatlariga qaramay, o'quvchilar dars davomida faol bo'lishmaydi, ko'pchiligi muhokamalarda ishtirok etmaydi yoki guruhda bajariladigan topshiriqlarni bajarishmaydi. Dars so'ngida o'quvchilar o'rtaga tashlangan savollarga sust javob berishadi va ayrimlari darsdan kutilgan maqsadlarni tushunmaganliklarini e'tirof etishadi.

2. O'qituvchilardan ularning ham faoliyatida huddi shu kabi vaziyat bo'lgan yoki bo'lmaganligini yoki boshqa hamkasblarida shu kabi vaziyat bo'lgan-bo'lmaganligini so'rang.

3. O'qituvchilardan nima uchun bu vaziyat ahamiyatli voqea bo'la olishi va bu vaziyat ularning kasbiy jihatdan o'sishiga qanday hissa qo'shishi mumkinligi haqida so'rang:

- Bu ko'pchilik o'qituvchilar boshidan o'tkazgan bezovta qiluvchi tajriba sanaladi.

- Bu darsning tuzilishi va o'tilishi bo'yicha ko'p savollarni o'rtaga tashlaydi.

- Bu o'quvchilarning ishtiroki xususida refleksiv mushohoda yuritish imkonini beradi.

- Bu dars jarayoniga turli yondashuvlarni integratsiya qilish kerakligini nazarda tutadi.

1. O'qituvchilarni refleksiv amaliyotning "Nima?" bosqichi xususida yanada batafsil o'ylab ko'rishga chorlang. Masalan, o'qituvchilar darsning yaxshi natija bergan va yomon natija ko'rsatgan qismlari ro'yxatini tuzishi mumkin. O'quvchilar faol bo'lmagan darslarda ham o'quvchilarning diqqatini tortgan va ularni faollashtirgan elementlar bo'lishi mumkin. Nimalar yaxshi natija berganligi va bermaganligiga diqqat bilan nazar solish o'qituvchilarga yanada samarali muhokama uchun xizmat qilishi mumkin.

2. O'quvchilar nima uchun dars davomida faol bo'lmaganliklarini yaxshiroq tushunish uchun o'qituvchilarni aniq savollar berishga chorlang. O'qituvchilar so'rashi mumkin bo'lgan savollarga quyidagilar kirishi mumkin:

→ O'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga yo'l qo'ymagan faktorlar nimalar edi? Dars mazmuni o'quvchilar qiziqishiga mos emasmi? Mashq yoki mavzu nima uchun ularga mos ekanligini ko'rmadimi? Mavzuni tushunish haddan tashqari qiyinmidi? O'quvchilarning mavzu bo'yicha ilgari egallangan bilimlari bormidi?

→ Dars maqsadlari aniqmidi? Maqsadlar juda keng qamrovlimidi yoki juda osonmidi?

→ Ko'rsatmalar aniq va ularni tushunish osonmidi?

→ O'quvchilarning turli ehtiyojlariga murojaat qiluvchi turli tuman strategiya va texnikalardan foydalanilganmidi?

Yuqoridagi savollarni berish orqali o'qituvchilar "**Nima bo'libdi?**" savoliga yanada batafsil javoblar topishadi.

Endi o'qituvchilarni dars ishlanmasi va darsni o'tish o'quvchilarni yanada faolroq ishtirok etishga undaydigan darajaga keltirish uchun nimalar qilish mumkinligi haqida o'ylab ko'rishga chorlang, ya'ni o'qituvchilarni "**Endi nima?**" degan savolga javob izlashga chorlang. O'qituvchilardan quyidagi ayrim tavsiyalar kelib tushishi mumkin:

→ Dars maqsadlari aniq va o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlash.

→ Darsni o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otuvchi va hayot bilan mavzu o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish imkonini beruvchi qisqacha qiziqarli kirish mashqidan boshlang.

→ Mashqlarni bajarish bo'yicha aniq ko'rsatmalar bering.

→ Dars davomida o'quvchilardan nimalar kutib qolinishini ochiq-oydin va aniq ifodalang.

→ Ijobiy o'rganish muhitini yaratish uchun o'quvchilarning ilgari egallagan bilimlarini faollashtiring.

→ Faol ta'lim olishni rag'batlantiruvchi turli mashq va topshiriqlar yarating.

→ Har bir mashq va faoliyat turi uchun havozalash strategiyalarini rejalashtiring.

→ Turli qobiliyat va ehtiyojlarga murojaat qilish uchun mazmun va jarayonni tabaqalashtiring.

→ O'quvchilarning butun dars davomida tushunishlarini tekshirib boring va davomil qayta aloqa bering.

→ O'quvchilar tushunmasa yoki nima qilish kerakligini bilmasa, savollar bilan murojaat qilish imkoniyatini bering.

→ Barcha uchun tanish faoliyat turlari (rutinalar)dan foydalanishda yoki ayrim yangi texnika va strategiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlang.

→ Darsdagi faoliyat turlari tig'iz bo'lib qolmasligi uchun va har bir faoliyat turini bajarishga yetarli vaqt ajratilishi uchun mashq va topshiriqlarga ajratilgan vaqtni tegishli tarzda moslashtirib chiqing.

→ O'quvchilar darsning bir qismi tugab, yangi bosqichi boshlanayotganligini aniq bilishi uchun, bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyat turiga o'tishda aniq qadamlarni integratsiya qiling.

Ahamiyatli voqea-hodisa ustida refleksiv mushohoda yuritish bo'yicha ushbu namunani keltirib o'tgach, o'qituvchilardan o'z tajribalarida sodir bo'lgan ahamiyatli voqea-hodisalarga iloji boricha ko'proq misollar keltirishni so'rang. O'qituvchilar keltirib o'tgan ahamiyatli voqea-hodisalarning ro'yxatini tuzing. Quyida o'qituvchilar misol tariqasida berishi mumkin bo'lgan ayrim ahamiyatli voqea-hodisalardan namunalar keltiriladi:

O'quvchi baland ovozda gapirib, hazil-mutoyiba qilib va tengdoshlariga halaqt bergan holda darsga halaqt beradi. Bir necha bor berilgan og'zaki ogohlantirishga qaramay salbiy xulq-atvor tobora kuchayib boraveradi va o'quvchi butun sinf oldida o'qituvchining nufuziga (avtoritetiga) rahna sola boshlaydi.

O'qituvchi o'quvchilarga vazifa beradi biroq bir necha nafar o'quvchi ulardan kutilgan natijaga mos kelmaydigan ishni topshirishadi. Sinf bilan buni muhokama qilgach, o'qituvchi shuni anglab yetadiki, guruhdagi ko'pchilik o'quvchilar baholash mezonini va kutilgan natijalarni yaxshi tushunishmagan ekan.

O'quvchi noo'rin yoki kurakda turmaydigan gap qiladi. O'qituvchi endi barcha o'quvchilar uchun ham tarbiyaviy ham ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan reaksiya bildirish bo'yicha bir qarorga kelishi lozim.

O'qituvchilarga shuni eslatilgiki, ahamiyatli voqea-hodisalar muvaffaqiyatni ko'rsatib beruvchi lahzalardan ham iborat bo'lishi mumkin. Masalan:

Ma'lum bir o'qitish strategiyasi o'quvchilarning mavzu yoki konseptni nihoyatda yaxshi darajada tushunishiga yetaklagan lahza.

O'quvchilar ayniqsa yoqtirgan va butun o'quv yili davomida esda saqlab yurgan faoliyat, topshiriq yoki mashq.

O'qituvchilar ijobiy ahamiyatli voqea-hodisalarni tahlil qilar ekan, refleksiv amaliyotning bosqichlari birmuncha boshqacha tarzda ifodalanishi mumkin:

Nima?: Yaqinda o'tilgan darsda nima sodir bo'ldi?

Nima bo'libdi?: Bu voqea-hodisa nimasi bilan ahamiyatli? Nimani payqadingiz yoki nima xulosa chiqardingiz?

Endi nima?: O'sha darsda boshqa darslarda ham qilishingiz mumkin bo'lgan nima qildingiz?

Agar vaqt yetsa o'qituvchilardan berilgan misollardan bittasini tanlashga chorlang va ushbu misol bilan "nima/nima bo'libdi/endi nima" bosqichlari bo'yicha refleksiya qilishni so'rang.

Yakuniy bosqich sifatida o'qituvchilar o'z refleksiv jurnallarida ahamiyatga molik voqea-hodisalar va ularni o'z kasbiy rivojlanishi qo'llash yo'llari bo'yicha xulosalarini qayd qilib qo'yishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son Qarori, - T.: 2024.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 20.02.2019 yildagi PQ-4199-son

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil " 7 " -avgustdagi 246-son buyrug'i